

## TA'LIM OLUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI

Soliyeva Gulirano Abrorjon qizi

*Rishton tuman 1-son kasb-hunar maktabi biologiya fani o'qituvchisi*

Mustaqil fikrlash - insonning bevosita o'ziga va o'zgalarning mavjudligiga bog'liq bo'lgan, uning tashqi ijtimoiy muhitning turli ta'sirlariga nisbatan fikr-o'ylari vositasida qarshilik ko'rsatish va o'z firini bayon etish qobiliyatidir.

Mazkur ta'rifda keltirilganidek, mustaqil fikrlash faqatgina turli ta'sirlarga nisbatan fikr-o'ylari vositasida qarshilik ko'rsatish va o'z fikrini bayon etish-nigina emas, balki yuzaga kelgan muammoga javob topish orqali ta'lim oluvchi yangi gipotezalarni o'ylab topishi hamda mazkur gipotezalarning yechimini topishga bo'lgan intilishlarini ham o'zida aks ettirishi muhim hisoblanadi.

Mustaqil fikrlash insoning o'z oldida tug'ilgan muammoni aniq maqsad va vazifalarni belgilagan holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, intellektual imkoniyati darajasida turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, qaysi jamiyatda ta'lim tizimi yoshlarni erkin fikrlashga o'rgatmas ekan, u jamiyatda ta'lim samarasi past bo'ladi va pirovardida: ham iqtisodiy sohada, ham ma'naviy sohada rivojlanish talab darajasida bo'lmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda mustaqillikning dast-

labki kunlaridanoq ta'lim tizimini rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish va shu orqali har tomonlama kamol topgan yoshlarni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunga kelib bu borada juda

katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Amaliy va rivojlangan mamlakatlarning tajribasi ko'rsatadiki, ta'lim oluvchilarga faqatgina ta'lim jarayonida berilgan bilimlarni o'zi yetarli bo'lib qolmasdan, ularni doimiy ravishda

mustaqil bilimlarini oshirib borishga o'rgatish muhim hisoblanar ekan. Bu borada yetuk psixolog olimi V. Karimova: «... fikrimiz orqali biz ko'zimiz bevosita ilg'amayotgan, ko'z o'ngimizda bo'lmagan, bo'lgan taqdirda ham

o'sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo'lgan «sirli» jihatlarni ko'rish imkoniga ega bo'lamiz!» - deb yozgan edi.

Fikrlash esa shaxsning bilish faoliyati jarayoni bo'lib, u voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi.

Fikrlash - bu aqliy faoliyat mahsulidir. U barcha insonlarga xos bo'lib falsafa, pedagogika, psixologiyaga doir adabiy turlarda uning 20 dan ortiq turlari ajratib ko'rsatilgan. Masalan, mazkur fanlarga oid lug'atlarda: mantiqiy, abstrakt (mavhum); umumlashgan, nazariy, texnik, reproduktiv, ijodiy (produktiv), tizimli, kategorial, induktiv, deduktiv, algoritmik, tanqidiy kabi turlari ko'rsatib o'tilgan.

Bugungi kun ta'lim tizimining eng asosiy muammolaridan biri yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish hisoblanadi.

Pedagog olim B. Xodjayev o'z tadqiqotlarida «Mustaqil fikrlash insonning muammoni, uni hal qilish yo'llarini o'zi ko'ra olishi va unga mustaqil javob topa olish qobiliyatidir» - deb hisoblaydi va mustaqil fikrlashni shakllan-tirishga ta'sir etuvchi omillarni to'rt guruhga bo'lish mumkinligini ta'kidlab o'tadi:

1. Fiziologik omillar: nerv tizimining reflektor faoliyati.

2. Psixologik omillar: o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, bilishga qiziqish, intellektual, fikrlarni erkin, ochiq, mazmunli ifodalash, o'zgalar fikrini eshita olishi, o'zgalar bilan murosa qila olishi, bilishga ehtiyoj, emotsionallik.

3. Ijtimoiy omillar: muhit, OAV.

4. Pedagogik omillar: o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, bilimlar zaxirasi, ta'limning shakl, metod va vositalari, o'quv xonasini kerakli jihozlar bilan ta'minlanganligi, o'qituvchi shaxsi va pedagogik faoliyat, ta'limning samarali texnologiyalan, shuningdek, u «... fikrlash (aynan, mustaqil fikrlash) inson biror obyektning mohiyatini anglab yetganidagina yuzaga keladi» — deb qaraydi.

Haqiqatan ham, kishi qaysi obyekt, narsa yoki hodisa haqida chuqur bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lsa, u haqida real o'z qarashlarini ifoda eta oladi.

«Pedagogika» fanidan izohli lug'atda «mustaqil ta'lim» tushunchasi olingan bilim, ko'nikma va malakani mustahkamlash, qo'shimcha materialni o'rganish maqsadidagi o'quv shakli deb qaraladi. Ayni vaqtda ilmiy va o'quv adabiyotlarida esa «mustaqil ta'lim olish», «o'zini tarbiyalash», «mustaqil

o'qish» tushunchalaridan unga sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

Mustaqil ta'lim — insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajnbasim, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlari jarayoni.

Hozirgi kunda xoh umumiy o'rta ta'lim, xoh oliy ta'lim tizimi bo'lsin,

unda axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan bir sharoitda barcha ma'lu motlarni faqat o'quv mashg'ulotlari paytida yetkazish imkoniyatlari pasayib bormoqda. Shuning uchun ham mustaqil ta'lim olishni oldindan rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-

sharoitlarni yaratish, o'quv mashg'ulotlaridan o'qitish bilan bir qatorda ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda ta'lim oluvchilar vaqtni to'g'ri taqsimlash

muhim o'rin tutadi va mustaqil ishlar soati fanlar kesimida o'quv rejada beriladi. Bunda har bir o'qituvchi zimmasiga javobgarlik yuklanadi.

● Har bir mustaqil ishni rejalashtirishda ta'lim tamoyillariga qat'iy amal qilish, ayniqsa, izchillik va tizimlilik tamoyiliga;

● mustaqil ishlarni rejalashtirishda har bir ta'lim oluvchining bilim darajasini hisobga olish, ya'ni berilgan topshiriqni ta'lim oluvchi mustaqil bajara olishi uchun uning oldindan egallagan bilim, malaka va ko'nikmalari yetarli bo'lishi kerak. Aks holda ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi;

- mustaqil ta'limni rejalashtirishda mutaxassislik fanlariga ajratiladigan o'quv soati miqdorini mumkin qadar oshirish;

- mustaqil ta'lim uchun mo'ljallangan topshinqlarni bajarish va uni nazorat qilish uchun haftalik vaqt meyoridan ajrailgan vaqt miqdori 22 soatdan oshmasligiga erishish va h.k..

Izlanishlar va uzoq yillik pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'lim oluvchi mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilim larni chuqur o'zlash tirishi mumkin. Ularning asosiy bilim, ko'n ikma va mala-

kalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. - Toshkent: «Fan» nashnyoti, 2003 -y
2. Xodjayev B. O'quvchilarnng mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari. Toshkent: Nizomiy nomidagi T D P U , 2 0 0 8 - y .
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)